



8-dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:49 (67006)

2014-yil
8-dekabr

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

YOSHLAR - VATAN, MILLAT KELAJAGI

Mening eng katta ishonchim yosh avloddir. Zamonaviy bilimga ega, odobli, ilmi, ko'rsang havasing keladigan, barkamol va shijoatli farzandlarimizdir. Men o'zimning taqdirimni ham, mamlakatimiz va mustaqilligimiz taqdirini ham ana shularning qiyofasida ko'raman.

I. KARIMOV

O'zbekiston
Respublikasi qonun
bilan tasdiqlanadigan
o'z davlat ramzlari -
bayrog'i, gerbi va
madhiyasiga ega.

O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 5-moddasi



**Aziz yurtim bayrog'ini doim baland ko'taraman,
Vataningamun nosib farzand bo'laman!**

2014-yil 3-oktabr, Singapur xalqaro maktabining 1-sinf o'quvchisi Saidakbar Alimov BMT kuniga bag'ishlangan marosimda O'zbekiston Respublikasi bayrog'ini olib chiqdi.

DIQQAT! DIQQAT!

«Tong yulduzi» gazetasiga obuna
bo'lishga shoshiling!

Nashr ko'rsatkichi - 198



Buxoro shahar, 38-umumta'lim
maktabi o'quvchilari «Tong yulduzi»
gazetasining doimiy hamkori

Joriy yilning noyabr oyida o'tkazilgan «Prezident asarlarini o'rganamiz» tanlovining shahar bosqichi g'olibi 9-«A» sinf o'quvchisi Nurmuhammad Amonov sinfdoshlari bilan saylovoldi partiyalar dasturi bilan tanishishmoqda.

BUXORO VILOYATI XALQ TA'LIMI
MUASSASALARI FAOLIYATIGA BAG'ISHLANGAN

**MAXSUS
SON**

Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 22 yilligi munosabati bilan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligining huquqiy kafolati» loyihasi doirasida «Vatan kelajagi sening qo'lingda!» va «Men saylovga tayyorman» shiori ostida rasmlar tanlovi bo'lib o'tdi.

KONSTITUTSIYA – YOSH MUSAVVIRLAR NIGOHIDA

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamda qator vazirliklar bilan hamkorlikda tashkil etilgan mazkur tanlovdan ko'zlangan maqsad milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatini yoshlar ongu shuuriga chuqurroq singdirish, joriy yil 21-dekabrda bo'ladigan saylovlar haqida yosh saylovchilarning xabardorligini oshirishdan iborat.

Tanlovda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Respublika rassomlik kolleji, Respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktabi va qator ixtisoslashtirilgan san'at maktablarining 400 nafarga yaqin iqtidorli o'quvchilari ishtirok etishdi. Ular o'z ijodiy ishlarida «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakat taraqqiyotining huquqiy kafolati», «Bugungi o'quvchi – ertaga saylovchi» kabi shiorlarning ma'no-mazmunini aks ettirishga harakat qilishdi.

Tadbir doirasida taniqli rassomlar tomonidan yoshlar uchun mahorat darslari ham uyushtirildi.

42-modda. Har

kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.

MUSTAQILLIK QOMUSI

xalqimiz xohish-irodasi, kelajagidir

Har bir mamlakatning o'z davlat ramzlari, jumladan, Konstitutsiyasi bo'lgani kabi bizning betakror O'zbekistonimizning ham bosh Qomusi – Konstitutsiyasi bor.

O'zida insonparvarlik g'oyalari aks ettirgan Konstitutsiyamizda siz, yoshlarning ona Vatani, oilasi bag'rida tinch-osoyishta yashashi, o'qishi, barcha imtiyozlardan to'liq foydalanishi, kelajagi ko'zda tutilgan alohida moddalari ham bor. Masalan, Konstitutsiyamizning 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidir», deb belgilab qo'yilgan. Haqiqatan, siz, yoshlarga hammaning havasi keladi. Ayni vaqtlarda zamonaviy texnika va uskunalar bilan jihozlangan sinfxonalar, chet tillarni o'rgatishga yaqindan yordam beradigan lingofon xonalarida ta'lim olasiz. Yoshligimni eslasam, loy-paxsadan tiklangan to'rta xonadan iborat, pastakkina bitta xonada ikki sinf o'quvchilari tiqilib o'qiydigan maktab ko'z oldimga keladi. Oddiygina yozuv daftari yetishmas, hatto siyoh to'ldirilgan siyohdon maktabga yetib kelgunimizga qadar butun ust-boshimizni bejab qo'yardi. Qishda sovuq, yozda isib ketadigan sinfxonalarda azob bilan o'qiganlarimizni eslasam, ko'nglim allanechuk bo'ladi.

Aziz bolalar! Tinch-osuda hayotimiz, osmonimizning musaffoligi, farovonligimizning sababchisi jondan aziz Mustaqilligimizdir. Siz-u biz hammamiz Mustaqilligimizni asrab-avaylashimiz, bu ajoyib, dorilamon kunlarning qadriga yetishimiz va Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan barcha qonun-qoidalarga og'ishmay amal qilishimiz lozim.

Yusuffon HAMDAMOV, filologiya fanlari nomzodi

TA'LIMNI TARBIYA, TARBIYANI ESA TA'LIM GO'ZALLASHTIRADI

Buxoro viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Mirzohid DAMINOV:



va san'at maktablaridir.

«Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida 1-o'rinni egallagan jami 36 nafar o'quvchilar tanlovning respublika bosqichida ishtirok etib, 8 ta 1-o'rin, 8 ta 2-o'rin, 9 ta 3-o'rinlarni egalladilar.

«Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida Buxoro shahridan 4 nafar, Jondor, G'ijduvon tumanlaridan 3 nafardan, Kogon, Vobkent, Qorako'l, Romitan tumanlaridan 1 nafardan ishtirokchilar g'oliblikni qo'lga kiritib, tanlovning respublika bosqichiga yo'llanma oldilar. Respublika bosqichida G'ijduvon tumanidagi 63-IDUMning iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchisi Jamshid Narziyev 1-o'rinni, Jondor tumanidagi 2-IDUMning ona tili fani o'qituvchisi Muharram Kamolova va Kogon tumanidagi 1-IDUM musiqa fani o'qituvchisi Sadoqat Ashurova 2-o'rinni, Qorako'l tumanidagi 15-umumta'lim maktabining mehnat fani o'qituvchisi Hafiza Salimova 3-o'rinni egalladilar. Viloyat bo'yicha 23 nafar ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalari ommalashtirildi.

Bugungi kunda viloyatimizda jami 948 ta ta'lim muassasalari bo'lib, shundan 534 ta umumta'lim maktablari, 1 ta Mehribonlik uyi, 340 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 14 ta «Barkamol avlod» bolalar markazlari, 40 ta bolalar va o'smirlar sport maktablari, 17 ta musiqa

O'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan «Ingliz tili bilimdonlari» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida Buxoro shahridagi 38-umumta'lim maktabi o'quvchilari va 39-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi faxrli 3-o'rinni egalladilar.

Toshkent shahrida o'tkazilgan «Lomonosov–2014 forumi»da Qorako'l tuman 52-IDUMI o'quvchisi Abdumalik Abduqayumov matematika fanidan faxrli 2-o'rinni egallab, kumush medal sohibi bo'ldi. Olot tumanidagi 31-IDUMI o'quvchisi Davrbek Oltiboyev matematika fanidan Koreya Respublikasida o'tkazilgan xalqaro olimpiadada faxrli o'rinni egalladi.

Barcha ta'lim muassasalarida sportning 12 turi bo'yicha viloyat birinchiligi o'tkazildi, «Milliy qadriyatlarimiz – beqiyos boyligimiz» shiori ostida milliy sport turlari bo'yicha musobaqalar va xalq



o'yinlari tashkil etildi. Ushbu sport tadbirlarida 2000 ga yaqin o'quvchilar ishtirok etdi.

Joriy yilning 18–19-sentabr kunlari Somoniylar bog'ida Kitob festivali o'tkazildi.

Ko'hna va hamisha navqiron Buxoroyi Sharif kelajagi bilimga chanqoq, kitobsevar, o'z ustida tinmay izlanuvchan, har tomonlama yetuk, barkamol yoshlar qo'lida ekanligiga aminmiz.

SHOFIRKONLIKLAR PESHQADAM,

– deydi Shofirkon tuman XTMFMTTE bo'limi mudiri o'rinbosari Baxtiyor TO'VEV

Hozirgi kunda tumandagi 54 ta umumta'lim maktabida o'qiyotgan 23514 nafar o'quvchiga 2676 nafar o'qituvchi ta'lim-tarbiya berib kelmoqda.

O'tgan o'quv yilida «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida 1396 nafar o'quvchi ishtirok etgan bo'lsa, 39 nafar o'quvchi viloyat bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi. Bellashuvning viloyat bosqichida esa 5 nafar o'quvchi (ona tili fanidan 4-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Charos Baqoyeva, o'zbek tili fanidan 2-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Amina Xalilova, kimyo fanidan 55-IDUMning 6-sinf o'quvchisi Shuhrat Nasrullayev, biologiya fanidan 46-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Azamat Ibodullayev, iqtisod fanidan 35-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Nafosat Shirinova) 1-o'rinni egallab, Respublika bosqichida ishtirok etishdi. Zukko o'quvchilar biologiya fanidan 3-o'rin, ona tili va iqtisoddan 2-o'rin hamda kimyo fanidan faxrli 1-o'rinlarni egallab, tuman hamda viloyat sharafiga munosib himoya qilishdi.


O'quvchilar o'rtasida «Inson xotirasi aziz», «Ajddolarimiz merosini o'rganamiz!», «Mening oilam», «O'zbekistonning yetti mo'jizasi» hamda «Biz chekishga qarshimiz», «Ichkilikbozlik – yomon illat», «Giyohvandlik – asr vabosi» mavzularida insholar va rasmlar ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Shuningdek, bir qator sport turlari bo'yicha musobaqalar tashkil etildi.

Bir so'z bilan aytganda, shofirkonlik o'quvchilar hech kimdan kam emasliklarini amalda isbotlashmoqda.



Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabi 2-sinf o'quvchisi Umidjon Jabborov tengdoshlari orasida o'z iste'dodi bilan ajralib turadi.

UMIDJONDAN UMIDIMIZ KATTA



Ayni paytda u o'zbek tilida ravon o'qish va yozish bilan bir qatorda, ingliz hamda fransuz tillarida ham bemalol so'zlasha oladi. Umidjonning ingliz tilidagi so'z boyligi hozirda mingtadan oshib qolgan. Yodlagan she'rlari esa yuzdan ortiq.

Aziz o'quvchilar! Jajji tengdoshingizga havas qiling va bilimdonlar safida bo'ling.

«BILIMLAR BELLASHUVI» — ZUKKOLAR MAYDONI

62-IDUMI respublika miqyosida alohida o'ringa ega ta'lim muassasalaridan biridir.

2011-yilda 6-sinf o'quvchisi Oqil Majidov biologiya fanidan respublikada 3-o'rin, 2012-yilda 8-sinf o'quvchisi Muhammadamin Hamroqulov fransuz tili fanidan respublikada 1-o'rin va 7-sinf o'quvchisi Zarnigor Obloqulova 2-o'rin, 6-sinf o'quvchisi Komron Komilov tarix fanidan respublika bosqichida 1-o'rin hamda 2013-yilda esa maktabning 8-sinf o'quvchisi Humoyun Babayev va 7-sinf o'quvchisi Savlat Barotov fransuz tili fanidan 1-o'rinni egallashdi.

2014-yilda maskanning 6-sinf o'quvchisi Kumushoy Ergasheva va 8-sinf o'quvchisi Ilhom Ibragimov fransuz tili fani bo'yicha bellashuvning respublika bosqichida 1-o'rin sohibi bo'lishdi.

Bu yutuqlar zamirida, albatta, fan o'qituvchilari Shodiyor Nishonboyev, Ozoda Rahmonova, Gulandom Jo'rayeva, Gulmira Tursunova, Gulandom Dehqonova, Ilhom Hamdamov, Jo'rabek Toshev, Gulnoza Rahmonova va Faxriddin Rahmonovlarning samarali mehnati yotganligini o'quvchilar alohida e'tirof etishdi.



Buxoro shahar 39-IDUM iqtidorli o'quvchilaridan biri 4-«R» sinf o'quvchisi Shohrux Muhiddinovdir.

SHOHRUX MUHANDIS BO'LMOQCHI



Shohrux mas'uliyatli, tirishqoq hamda izlanuvchan bola. U barcha fanlarni a'lo o'zlashtirish bilan birga, ustozlari tomonidan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga harakat qiladi. Matematika faniga qiziqishi bois, shaxmatni yaxshi o'ynaydi. U sarguzast va ensiklopedik adabiyotlarni sevib o'qiydi.

Kompyuterni yaxshi o'zlashtirgan bilimdonimiz «ZiyoNET» orqali respublikamizning barcha viloyatlaridagi tengdoshlari ijodiy ishlari bilan tanishib boradi.

Shohruxning kelajakdagi orzulari bisyor. U kelgusida bobosi Muhiddin Akmalov kabi yetuk muhandis bo'lib, yurtimizning kimyo-texnologiya sohasiga o'z hissasini qo'shishni maqsad qilgan. Ko'ngli osmondagi beg'ubor bolakayning ezuq maqsadlari ushulishiga tilakdoshmiz.

YILNING ENG OBOD TA'LIM MUASSASASI

«Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir», deydi ulug'larimiz. Millatning ertasi, kelajagi maktabda kamol topadi. Maktab — sevimli maskan, bolalikning beg'ubor olami qadr topgan go'sha. G'ijduvon tumanidagi 8-davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktab-internatiga borsangiz, bunga yana bir bor amin bo'lasiz.

Ingliz, rus va ona tili, tarix fanlarini chuqurlashtirib o'rgatishga ixtisoslashtirilgan mazkur maskanda bugungi kunda 408 nafar o'quvchi ta'lim oladi. O'quvchilarning dars mashg'ulotlari tugagach, «Kichik akademiya», «English club», «Zakovat», «Yosh shoirlar darsxonasi» kabi intellektual klublarda o'z iqtidorini yanada rivojlantiradi. Ruhshunos qabulida o'smirlar dunyosiga oid maslahatlarni oladilar. Bundan tashqari, o'quvchilarning badiiy kitoblari o'qib, mazmunli dam olishlari uchun alohida qiroatxona, dam olish xonasi, «Yoshlar bog'i» tashkil etilgan. Maktab radiosi orqali o'quvchilar respublikamiz va maktab yangiliklari bilan tanishib boradilar. Yosh jurnalistlar o'z radioeshittirishlari bilan kunning yanada qiziqarli va quvnoq o'tishiga hissa qo'shadilar.

Bir necha yillardan buyon maktab-internat o'quvchilari «Bilimlar bellashuvi»da ham yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Bellashuvning respublika bosqichida Gulchiroy Isroilova ona tili va adabiyoti fanidan 1-o'rin, Zulfizar Ahmadova ikki yildan beri 2-o'rin, Otabek Jumayev, Shahlo Islomova ingliz tili fanidan 3-o'rinni qo'lga kiritdilar.

«Ingliz tili bilimdoni» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida maktab jamoasi faxrli 2-o'rinni egallagan bo'lsa, «Eng yaxshi elektron axborot-ta'lim resurslari» tanlovining respublika bosqichida 9-sinf o'quvchisi Shuhrat Sharipov o'zi tayyorlagan elektron darsligi bilan 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Maktab-internat 2013–2014-o'quv yilida «Yilning eng obod ta'lim muassasasi» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida 1-o'ringa loyiq deb topildi.

O'quv maskanida xalqaro hamkorlik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan, o'quvchilar jahonning turli davlatlaridagi tengdoshlari bilan do'stlashadilar, fikr almashadilar, ularning ta'lim tizimi bilan tanishadilar.

XALQARO HAMKORLIK YOKI YAPONCHA CHOY BAYRAMI

2012-yilda Yaponiyaning «Jayka» Xalqaro tashkiloti bilan o'zaro hamkorlik shartnomasi tuzildi. Yaponiyalik pedagog Yuka Sugixara ikki yildan buyon bolalarga yapon tili, madaniyati va san'atini o'rgatib kelyapti. 2014-yilning 24-noyabrda maktab o'quvchilari «Yaponcha choy bayrami»ni nishonlashdi. Tadbirga O'zbekistonning turli viloyatlarida faoliyat olib borayotgan 20 nafar yaponiyalik mehmonlar tashrif buyurishdi. Bayramga taklif etilgan otonalarning ham o'quvchilar ijrosidagi yapon musiqasi va raqslarini tomosha qilib, miriqib dam olishdi.



A. HAMIDULLAYEV olgan surat

SAN'ATIMIZ G'UNCHALARI

Buxoro shahridagi 5-Bolalar musiqa va san'at maktabida 236 o'quvchi o'nta yo'nalish bo'yicha tahsil olmoqda.



hamda Dilmurod Xudoyberdiyev (prima rubob) III o'rinni egallashdi.

«Kamalak yulduzlari» festivali viloyat bosqichida qatnashgan o'n bir nafar o'quvchidan fortepiano yo'nalishi bo'yicha 2-sinf o'quvchisi Shirin Ashurova va Aleksey Mirochik hamda Milana Gerdt xoreografiya yo'nalishi bo'yicha Respublika festivalida qatnashishga muvaffaq bo'lishdi.

Zamonaviy ta'mirlangan bino, yangi musiqa asboblari, ko'rgazmali qurollar bilan jihozlangan xonalar yoshlarni quvontirib, yangidan yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Musiqa maktabi o'quvchilari o'tgan davr mobaynida ko'plab muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Joriy yilda M. Yoqubov nomidagi Respublika ko'rik-tanlovida uch nafar o'quvchilar qatnashib, Abdulaziz Oripov (chang) II o'rin, Suhrob Aslonov (doira) II o'rin

IQTIDORLILAR MAKTABI

Buxoro shahridagi 38-umumta'lim maktabida hozirgi kunda 1321 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

Maktab pedagoglar jamoasining aksariyati birinchi va oliy toifali o'qituvchilardan iborat. «Dars – muqaddas» tadbiri asosida ustozlar darslarni ilmiy, ijodiy va yangi pedtexnologiyalar asosida boyitib, samarali tashkil etib kelishmoqda.

Maktabda fan oylig'larini ko'tarinki ruhda o'tkaziladi. Ochiq dars va tadbirlar, davra suhbatlari, she'riyat kechalari, shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar muntazam tashkil etiladi.

8-«A» sinf o'quvchisi Gulnoza Navro'zova o'tgan yillar davomida «Soliq va bolalar», «Mustaqillik – mening qalamimda» ko'rik-tanlovining liboslar dizayni yo'nalishi bo'yicha viloyatda 1-o'ringa munosib topildi. 2014-yil «Ekologiya va bolalar» ko'rik-tanlovining birinchi bosqichida va Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bo'yicha o'tkazilgan tanlovda faxrli o'rinni egalladi.



Mavlonova, Samandar Sunnatov kabi o'qituvchilarning bilimdon o'quvchilari ham peshqadamlar safida bo'ldilar.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda Malika Murtazoyeva, Lola Qurbonova, Gulshan Nurullayeva, Rahima Otamurolova, Rohila Otamurodova, Shoira Rahmatova, Saodat Otamurodova kabi o'qituvchilarning fidoyiligi diqqatga sazovordir.

Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish, ilg'or pedagog xodimlar ishini ommalashtirish, ularning malakasini oshirishni o'z vaqtida tashkil etish, «Ustozshogird» an'analarini davom ettirish, qisqa qilib aytganda, jamoada yangicha ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bugungi pedagogning asosiy vazifasidir.

Maskanda iqtidorli o'quvchilarning ota-onalari maktabga taklif etiladi. Zero, iqtidor – noyob kashfiyot, bolaga berilgan ilohiy ne'mat, uni topish, tarbiyalash, rivojlantirish – O'zbekistonning buyuk kelajagi uchun qo'yilgan zalvorli qadamdir.

F. JALILOVA

JAHONDA BO'LMASA MUALLIM AGAR, HAYOT HAM BO'LMASDI GO'ZAL BU QADAR

Buyuk alloma Abdurahmon Jomiyning bundan bir necha yuz yil oldin bitgan baytlarining betakrorligiga asrlar guvohidir.

Darhaqiqat, bu olamning gultoji, hayot yo'llarining mehvari, ulug' fazilatlarining sarvari – ustoz muallim.

Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabining 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi Mahbuba Akmalova ham ana shunday ustozlik baxtiga sazovor bo'lgan, butun hayotini, bor bilim va qalb qo'rini kelajak avlodga bag'ishlagan fidoyi ustozlardan.

Avvalambor, ustozlaridan olgan o'git va nasihatlarini ming bor yodga olib, bilim mahoratiga tayanib, sinf xonasiga ohista qadam qo'ygani hech yodidan chiqmaydi. Unga hayrat bilan termulib turgan o'ttiz juft qora ko'zlarining nigohi opani sergaklantirdi. Xuddi onalari timsoliga kirib, muloyimlik, shirinsuxanlik bilan ilk mashg'ulotni boshladi. Bolajonlar ham mehribon muallimaga tez fursat ichida bog'lanib qolishdi. Izlanuvchan pedagog dars jarayonida muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratadi. Bolaning sog'ligi joyidami? O'quv-qurollari yetarli? Berilayotgan ta'lim-tarbiya unga yetib boryaptimi?

4 Javoblardan qanoatlanmasa, turli xil uslublarni qo'llab, ko'rgazmalarning

turini ko'paytirib, mashg'ulot shaklini tez-tez almashtirib, oldiga qo'ygan maqsadga, albatta, erishardi.

Ta'lim tizimidagi islohotlar, muallimning mas'uliyatini yanada oshirdi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda darslarni tashkil etish, fanga doir adabiyotlardan o'rinni foydalanish,

mashg'ulotlarni zamon talabiga mos ravishda tashkil etishga asosiy e'tiborini qaratdi. «Dars – muqaddas» shioriga tayanib, namunali darslar ishlanmasini yaratdi. Ustozshogird an'anasi davom ettirib, yosh pedagoglarga kasbini ulug'lashga doir tavsiyalar tayyorladi.



Mahbuba opaning ko'p yillik tajribasi o'z samarasini bermoqda. Ko'plab o'quvchilari fan olimpiadalari, «Bilimlar bellashuvlari»da viloyatda faxrli o'rinni qo'lga kiritdi. N. Boltayeva biologiya fani bo'yicha (2-o'rin), Yu. Nasrullayeva kimyo fanidan (2-o'rin), M. Muzaffarova rus tili fanidan (2-o'rin), P. Isoyeva ona tili yo'nalishi (2-o'rin) sovrindori bo'lishdi. Boshlang'ich sinfda ta'lim bergan o'quvchilari M. Mahmudova, M. Adizova, D. Amonova, B. Hasanovlar bugun ustozlar bilan bir jabbada mehnat qilishmoqda.

Uyga qaytgan ustoz-muallima oldidan chopqillab chiqqan shiringina nabiralari Zarina va Diyorjonlarni bag'riga bosib, tinch va osoyishta zamonimizga shukronalar aytadi.

English magazine in our school
(Maktabimizda ingliz tilida jurnal)

For four years «Flesh» has been the favorite magazine for pupils of Gijdivon district 8th of boarding school. «Flesh» is published in English once a month by direction of Gulshod Abdullayeva. In this magazine you can see pupils' work such as, poems, stories and articles, translations of



great works from Uzbek and World literature. They have a circle «An interesting interview» in this pupils talk with their dear teachers. There is a special page for English learners. The different tasks and amusing crosswords rise up pupils interest to learn this language.

Lesson 13

Hello, English!

In Bukhara district 9th of school 1st form pupils are very fond of English. Today, they have already known how to count, how to greet and many other things.



English Clever Heads
(Ingliz tili bilimdonlari)



In Bukhara city in 38th school there are circles like, «Happy English», «Smarts in English», «Lucky generation», «Young translators». They have many interesting games and use different interactive methods in their lessons. The winners of province had great responsibility in the parade of «English clever heads» on the city stage. The pupil from 6-«A» Shakhzod Qurbonov, pupil of form 7-«B» Nigina Yunusova and Azizbek Azizov form of 9-«B» such as learned children took part in the city stage and they came back from the capital to Bukhara with diploma.

«Tong yulduzi» is favorite newspaper of this family
(«Tong yulduzi» bu oilaning sevimli gazetasi)



In Kogon city Rashid Tokhliyev and Dilfuza Azizova's family is one of the constant subscribers of this newspaper. They discuss every edition with their family.

Ibrohim FAYZIRAHMONOV

Passive voice
(Majhul nisbat)

Ingliz tilida 2 xil nisbat bo'lib, ular:

Active voice (aniq nisbat) va Passive voice (majhul nisbat). Aniq nisbatda ish harakat kim tomonidan bajarilganligi ko'rsatilsa, majhul nisbatda ish harakat kim tomonidan bajarilganligi ko'rsatilmaydi, ya'ni egasi yo'q gap hisoblanadi.



For example: My sister cleans this room every day (Active).

(Opam har kuni bu xonani tozalaydi).

This room is cleaned every day (Passive).

(Bu xona har kuni tozalanadi). (Ish harakat kim tomonidan bajarilishi noma'lum).

Majhul nisbat hozirgi va o'tgan zamonlarda ishlatilib, noto'g'ri fe'llarning III shakli, to'g'ri fe'llarga – ed qo'shish orqali yasaladi:

Subject + to be + V₃
(am, is, are, was, were)

When was the Arch built in Bukhara?

Bred is made from flour.


Oranges are imported into Britain.

Lekin ish harakat kim tomonidan bajarilganligi aytilsa, by

(tomonidan) predlogi orqali yasaladi:

Manti is cooked by my mother.

The tree was cut by my uncle.



Exercise 1. Complete the sentences. Use the passive (present or past) of these verbs:

build damage show make speak

- Paper from wood.
- There was a fire at the hotel last week. Two rooms
- Many different languages in India.
- These houses are very old. They about 500 years ago.
- Is this a very old film? Yes, it in 1949.

Exercise 2. Write sentences from the words in brackets. All the sentences are past.

- (This room/paint/last month) *This room was paint last month.*
- (Anvar's bicycle/steal/last week)
- (When/television/invent?)
- (How/the window/break?)
- (Why/ the letter/ send/to the wrong address?)



Dinara SHAKIROVA tayyorladi

Funny dialogue
(Qiziqarli dialog)

One day a boy asked his grandmother:

Boy: – Grandma, which is the longest word in the world?

Grandma: – Oh, my dear. I don't know? Do you know yourself?

B: – Yes, I do.

G: – Well, what is it?

B: – It is the word «Smiles»

G: – That is not very long word. Only six letters.

B: – Oh, but there is a «mile» between the first and the last letters.

Shahnoza KARIMOVA



TUPROG'IDAN ZIYO TARALGAN MAKON

Donishmandlarimiz Buxoroni yer yuzidagi beqiyos bilim o'chog'i deyishadi. Bu so'zning nechog'liq haqligiga guvohmiz. Bolaligida to'rt mingdan ziyod hadisni yod bilgan imom Buxoriy dunyo ilmini egallab, olam ahlini lol qoldirganidek, Buxoroli sharifni ziyorat qilish uchun kelgan sayyohlarning qadami bu bebaho tuproqdan hech qachon uzilmaydi.

Aytishlaricha, nur yer yuziga osmondan yog'ilib turgan bir paytda Buxorodan ko'kka qarab ziyo taralar ekan.

Keling, aziz avliyolar qadami tekkan muqaddas tuproqda yashash baxtiga muvassar bo'lgan yoshlarning ijodidan siz ham bahramand bo'ling.

Sumanbar Najimova Buxoro shahridagi 38-umumta'lim maktabining 9-«B» sinfida o'qiydi. 2012-yil «Oila – asriy an'analar o'chog'i», 2013-yil esa «Konstitutsiya – Baxtimiz poydevori» mavzusidagi insholar ko'rik-tanlovining respublika bosqichi g'olibi. Bo'sh qolgan paytida she'rlar mashq qiladi.



TARK ETMASIN SAMONI TINCHLIK

Farzandlaring hur va barkamol,
Maqsadlari senga esh-qanot.
Yurtboshimiz mehridan har on,
Dilimiz shod, ko'ngillar obod.

Xizmatingga belini bog'lar,
Chempionlar, bilimli yoshlar.

Chor tarafing viqorli tog'lar,
Keng dalalar, go'zal chorbog'lar.

Bayramlaring muborak bo'lsin,
Ta'rifi ming kitob bo'lgulik.
Bag'ring alp-u mardlarga to'lsin,
Tark etmasin samoni tinchlik.

NON AZIZ



– Bobo, nega biz nonni,
Ardoqlaymiz har safar?
U tillomas, yo'ltin,
Bir yegulik atalar.

– Unday dema, jon bolam,
Nonsiz yashamas olam.
Ushog'in ko'zingga surt,
U bilan to'kisdir yurt.



Abduvohid SHOMURODOV,

Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

Qish fasli bo'lishiga qaramay havo iliq, maydalab yog'ayotgan yomg'ir birdan sharros quya boshladi. Bir soatlar o'tar-o'tmas yomg'ir laylakqorga aylanib, hammayoq zumda oppoq choyshab ostida qoldi. Buni ko'rib zavqlandim, shu ondayoq qorbobo yasashga kirishib ketdim.

Hovlimiz o'rtasidagi keksa tut daraxti ham oppoq qorga burkandi. Tut novdasidan sindirib olib, qorboboga «qo'l» qilib suqib qo'ydim. Meni derazadan kuzatib turgan bobom asta-asta qadam bosib, hassasini do'qillatganча yonimga keldi.

– Bolam, qorboboni-ku boplab yasabsan, – dedi o'ychan. – Lekin bu keksa tutning novdasidan sindirib yaxshi ish qilmading. Bu tut sen-u menga bobomdan meros, aytishlaricha, uni otamning otasi o'tqazgan ekan. Har safar bu daraxtni ko'rganimda xuddi bobom bilan otamni ko'rgandek bo'laman. Bahorda hatto qo'ni-qo'shnilar ham uning mevasidan bahramand bo'lishadi. Yozda esa uning soyasi asqatadi.

Bobomning faxr va g'urur bilan aytgan so'zlari men uchun saqob bo'ldi.

KEKSA TUT VA BOBOM



Shohrux ERGASHEV,

G'ijduvon tumanidagi 8-IDUMI 9-«B» sinf o'quvchisi

YURTIMIZ BAYROG'I

Osmon uzra hilpirar,
Yurtimizning bayrog'i.
To'rt xil rangda mujassam,
U baxtimiz chirog'i.

Moviy, qizil, yashil, oq,
Xalqim ko'ngli toza, pok.
Har birining ma'nosin,
O'zing o'ylab ko'r har choq.

Munisa MURODOVA,

Buxoro tumanidagi 9-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

ERKATOY UKAM

Bordir erkatoy ukam,
Ko'rmasin ko'zlari nam.
U – onanning dilbandi,
Otamning jigarbandi.

Qalbida yo'q g'ubori,
Tog'lardan baland ori.
So'zlarida shahdi bor,
Dilda yuksak ahdi bor.

Mening erkatoy ukam,
Ko'rmasin ko'zlari nam.
Bulbul kabi kuylaydi,
Quvonch bilan so'ylaydi.

U bilan quvnar olam,
Sog' bo'lsin ukam har dam.



Sabina MURODOVA,

G'ijduvon tumanidagi 62-IDUMI 6-«B» sinf o'quvchisi

ORZU

Mening orzuim ulug' –
Shifokor bo'lish erur.
Bemorlarni davolash,
Menga cheksiz zavq berur.

Bu uchun doim o'qib,
Tajriba oshiraman.
Kelajakda, albatta,
Orzuimga yetaman.

Ota-onam so'zlarin
Qoldirmay bajaraman.
Shunday qilib men albat,
Yetuk inson bo'laman.



Malika HOJIYEVA,

Buxoro shahar, 39-IDUMI 5-«A» sinf o'quvchisi

SOG'LOM BOLAJON

Yurtning suyuqli baxti,
Vatanning toj-u taxti,
Kamil bo'lmoqlik ahdi,
Sog'lom bola, bolajon.

Qilgan ishi yarashar,
Kattalarga karashar,
Quvonch, shodlik ulashar,
Sog'lom bola, bolajon.

O'sib ulg'aygin, bardam,
Qadam tashlagin ildam,
Seniki yorug' olam,
Sog'lom bola, bolajon.



Otobek DEHQONOV,

Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

E'TIBORNING YUKSAK NAMUNASI

Mamlakatimiz Istiqlolga erishgan dastlabki kunlaridagi imkoniyati cheklangan insonlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida hayot kechirishlarini ta'minlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yaqinda poytaxtimizda Xalqaro nogironlar kuniga bag'ishlab «Qo'lni-qo'lga beraylik» shiori ostida festival bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida o'tkazilgan tadbirda muruvvat uylari, nogironlar jamiyati tasarrufidagi korxonalar jamoalari o'z mahsulotlarining ko'rgazmasini o'tkazdilar. Imkoniyati cheklangan insonlar tomonidan namoyish etilgan musiqiy tomoshalar barchani quvontirdi.

Festival qatnashchilarining ko'zlaridagi quvonch va ishonchni ko'rib, har qanday kishining ko'ngli zavqqa to'lishi shubhasiz edi. Zero, festivaldan ko'zlangan maqsad ham shu edi aslida.

BOLALIKNING BEG'UBOR DAMLARI

Buxoro shahar «Barkamol avlod» bolalar markazida 380 dan ortiq o'quvchilar to'garaklarda to'rt yo'nalish bo'yicha boshlang'ich kasb-hunar sirlarini o'rganib kelmoqda.



Markazda maktab, mahalla, ota-onalar va Mehribonlik uylari bilan hamkorlikda faoliyat yuritish keng yo'lga qo'yilgan. Joriy o'quv yili davomida hududiy mahallalar fuqarolar yig'ini faollari bilan hamkorlikda «Yagonasan, muqaddas Vatanim!», «Bekalik sirlari», «Yigitlik sha'ni», «Jinoyatning boshlang'ich sabablari» kabi mavzularda tadbirlar tashkil etildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarni to'garaklarga jalb etish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkillashtirish markazning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, shahardagi 32-Mehribonlik uyida «Badiiy ijodiyot» va «O'lkashunoslik» yo'nalishlari bo'yicha to'garak tashkil etilib, bunga Mehribonlik uyining 90 dan ortiq o'quvchilari jalb etilgan.

Markaz o'quvchilari turli tanlovlarda ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritmoqda. Yaqinda viloyat miqyosida o'tkazilgan «Sog'lom oila – sog'lom bola» tanlovining «Liboslar dizayni» yo'nalishi bo'yicha «Tasviriy san'at» to'garagi a'zosi, 38-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Gulnoza Navro'zova 1-o'rinni egallab, tanlovning respublika bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi. Ayni paytda sport ustasi Hasan Umarov rahbarlik qilayotgan «Shaxmat» to'garagi o'quvchilari shaxmat bo'yicha o'tkaziladigan viloyat birinchiligida ishtirok etish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan bo'lsa, «Yosh sayohatchi» to'garagi a'zolari esa qishki ta'til kunlarida sayohat tashkil etish uchun qizg'in tayyorgarlik olib borishmoqda.

Markaz yutuqlari bilan yaqindan tanishish istagida bo'lsangiz, Buxoroga yo'lingiz tushsa, bu maskanga kirib o'tishni unutmang!

SPORTSEVAR YOSHLAR

G'ijduvon tumanidagi 8-IDUMida voleybol, futbol, basketbol, tennis, qo'l to'pi, shahka, shaxmat, yengil atletika, gimnastika kabi sportning to'qqiz turi bo'yicha to'garaklar tashkil etilgan.



Maktabda qizlar uchun gimnastika xonasi tashkil etilgan bo'lib, bu yer qizlarning eng sevimli mashg'ulot joyiga aylangan. Chunki qizlarning nozik va ko'rkam bo'lishida gimnastikaning o'rmi beqiyos.

GO'ZALLIK VA NAFOSAT BAYRAMI

Poytaxtimizdagi badiiy gimnastika bo'yicha bolalar-o'smirlar respublika ixtisoslashgan olimpiya xazinalari sport maktabida xotin-qizlar o'rtasida «Gimnastika barcha uchun» an'anaviy musobaqasi bo'lib o'tdi.

Mutasaddi tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan musobaqada mamlakatimizning barcha hududlaridan 160 nafardan ziyod ishtirokchi g'oliblik uchun bahslashdi.

– Gimnastika bilan muntazam shug'ullanaman, – deydi surxondaryolik Dilrabo Xoliqulova. – Bu kabi turnirlar o'z salohiyatimizni namoyish etish,

sport orqali sog'lom turmush tarzi tamoyillariga amal qilishimizda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda nufuzli musobaqalarda ishtirok etish niyatidaman.

Musobaqada jamoalar tayyorlagan kompozitsiyalar ijro mahorati, raqs va gimnastika elementlarini bajarish qobiliyati bo'yicha baholandi.

BO'LAJAK CHEMPIONLAR

Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabida 10 ga yaqin sport to'garaklari tashkil etilgan bo'lib, ularga 290 nafar o'quvchi jalb qilingan.

– Uch yildan buyon stol tenisi to'garagiga qatnayman, – deydi Madina Baxtiyorova. – Gulchehra Jalolova murabbiyligidagi to'garagimiz a'zolari har yili «Umid nihollari» sport musobaqalarining tuman, viloyat bosqichlarida muvaffaqiyatli natijalarni qo'lga kiritib kelishadi. Joriy yilda biz mazkur musobaqaning 5–7-sinfilar o'rtasidagi tuman bosqichida birinchilikka erishdik.

Yengil atletika to'garagi a'zosi Muborak Yo'ldosheva «Umid nihollari» viloyat bosqichining yakka bahslarida o'z mahoratini namoyish etib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Maktabning umidli sportchilaridan yana biri 7-sinf o'quvchisi Muhammadali Yunusov yunon-rum kurashi bilan shug'ullanadi. Yaqinda o'tkazilgan tuman birinchiligida u barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratib, g'oliblik shohsupasini egalladi. Viloyat chempionatida esa kumush medalga sazovor bo'ldi. Biz bo'lajak chempionlarni qutlaymiz va omad hamisha yor bo'lsin, deymiz!

SOG'LOM BOLA – FAXRIMIZ

G'ijduvon tumanidagi 62-IDUMida bolalar sportini rivojlantirishga alohida e'tibor berilyapti. O'tgan o'quv yilida barcha qulayliklarga ega yangi sport zalining foydalanishga topshirilganligi yosh sportsevarlarni yanada ulkan g'alabalarga undamoqda. Jumladan, maktab o'quvchilari Shavkat Bahronov, Sherzod Muxtorov, Vahob Salomov hamda Shamshod Abdurahmonovlar karate-do bo'yicha respublika birinchiligining oltin va kumush medallari sohibi bo'lishdi.

Ha, sog'lom bola nafaqat oilaning, balki jamiyatning ham faxridir.

SINFDOSH GIMNASTIKACHILAR

Buxoro shahar 38-umumta'lim maktabi 3-«G» sinf o'quvchilari Lobar Rajabova va Samira Mahmudova badiiy gimnastika bilan shug'ullanishadi. Lobar 2013–2014-yillarda ushbu sport turi musobaqasining respublika bosqichi mutlaq g'olibi, oltin medal sohibasidir.



Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasi

BO'YOQLARDA AKS ETAR HAYOT

BUXORO SHAHRIDAGI 39-IDUM 3-«V» SINIF O'QUVCHILARI UJODIDAN NAMUNALAR

«Xayrlashuv»



Kamola SAMIYEVA

«Tipratikanlar»




Mirjalol RAHMATOV

«Oltin kuz»



Jasmina MARDONOVA

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIRI! «MUQADDAS DIYOR» KROSSVORDI



Bo'yiga: 1. Buxorodagi tennis korti.

3. Sovrindor bokschi.

14. Aqliy sport o'yini.

16. Ommalashgan sport turi.

17. Labihovuz obidasi oldida haykali o'rnatilgan xalq latifalari qahramoni.

Yoylar bo'yicha: 1. Chegaradosh viloyat.

2. Uzum navi.

4. Teatr aktyori va rejissori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

14. Shaharga berilgan ta'rifdan: «Buxoroi ...».

15. Buxorolik yozuvchi, adabiyotshunos, tarixchi, davlat va jamoat arbobi.

Zanjir holida: 5. Qazilma yoqilg'i turi.

6. Viloyat hududida joylashgan vodi.

7. «Buxoro tarixi» asarini yozib qoldirgan X asr tarixchi olimi.

10. Qadimdan rivojlangan metallga o'yib naqsh chizish amaliy san'ati.

11. Jahon chempioni Akobir Qurbonov shug'ullangan sport turi.

12. Viloyatning shimolida joylashgan tuman.

13. Ho'l meva.

18. Oliy liga futbol jamoasi.

19. «Qorako'l» qo'riqxonasi tashkil etilgan tuman.

20. O'zbekiston Qahramoni, ustoz zardo'z ayol.

21. Buxoro davlat me'moriy-badiiy muzey qo'riqxonasi joylashgan obida.

22. Qadimdan kutubxonalarda saqlangan bilim manbai.

Diagonal bo'yicha: 8. Qo'zichoq mo'ynasi nomi bilan ataluvchi tuman.

9. Alisher Navoiy siyosini teatr sahnasida eng ko'p marotaba ijro etgan ustoz san'atkor.

Tuzuvchi: Husan O'RIPOV

Gazetamizning 48-sonida berilgan «TARIXIY MASKAN» AYLANMA KROSSVORDIning javoblari: 1. Behbudiy. 2. Registon.

3. Sabzavot. 4. Zarafshon. 5. Qo'shrabot. 6. Payshanba. 7. «Samarিয়া». 8. Mo'minova. 9. Qo'g'irchoq. 10. Nurbuloq.

11. Voleybol. 12. Boshbekov. O'QING-CHI! Aylanalarda: Afrosiyob.

Maksimal sonni tayyorlashda yaqindan yordam bergan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborot xizmati xodimlariga, Buxoro viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Mirzohid DAMINOV va boshqa mutasaddilarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Ushbu sonni tayyorlaganlar: F. Adilova, F. Matyoqubov, A. Karimov, Yu. Abdullayev, N. Qidiraliyev, D. Hotamova, A. Fayzullayev, J. Matyoqubov, N. Abdullayeva, O. Tursunboyeva, Sh. Maxmadiyev, Z. Mamatqulova.

BUXORODA BIR KUN



Kogon shahar «Barkamol avlod» bolalar markazi o'quvchilari – Navzod va Angelina «Tong yulduzi» gazetasiga birinchilardan bo'lib obuna bo'lishdi.



N. SULTONOV
olgan suratlar

Buxoro shahridagi 39-IDUM 4-«R» sinf o'quvchilari ustoz Yelena Chiosovani o'z onalaridek ko'rishadi.

8

8-dekabr 2014



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Nurbek
QIDIRALIYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 29417
Buyurtma – S 1555